
“PIYOZCHILIK” MAHALLASI YANADA OBOD BO‘LMOQDA

Shu kunlarda “Piyozchilik” mahalla fuqarolar yig‘inida “Obod xonadon – obod ko‘cha – obod mahalla” mezonlari asosida keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Mahalla hududiga kirish qismiga zamonaviy ko‘rinishdagi stella o‘rnatilib, tevarak atrofda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Ma‘lumot o‘rnida: dastur doirasida mahalla hududining 1,1 kilometrlik yo‘llarini asfaltlashtirish, 2 kilometr masofada piyodalar yo‘laklarini barpo etish, 2 kilometrlik ichimlik suvi tarmog‘ini tortish, elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida 9,5 kilometrlik elektr tarmoqlarini tortish, 370 ta temir-beton ustunlari hamda 2 ta yangi transformator o‘rnatish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlar uchun respublika hamda viloyat mahalliy byudjetidan jami 2,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratiladi.

2024-02-22 17:25:14